



## MUTAXASSISLARNING ISH FAOLIYATI

*Ilmiy rahbar Boltayeva Sh.B – BuxDU,  
“Yashil iqtisodiyot va agrobiznes” kafedrasi katta o’qituvchisi,  
Qudratov Javohir Farkhadovich  
BuxDU, 3-2AGB-20 guruhi talabasi,  
Raximov Ismadiyor Adhamjon o‘g‘li  
BuxDU, 3-2AGB-20 guruhi talabasi.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mutaxassislarning ish faoliyati, mutaxassis sifatida kamol topish uchun qilinishi kerak bo’lgan ishlar, talabalarni o’z kasblarini egallashda bosib o’tadigan yo’llari, hamda kasb tanlashdan asosiy maqsad va kasbiy faoliyati haqida ma’lumotlar berilgan.

**Kalit so’zlar:** kasbiy faoliyat, mutaxassis, qadriyatlar, hayotiy sohalar, kasb.

**Аннотация:** В данной статье представлена информация о работе специалистов, о том, что необходимо делать, чтобы вырасти как специалист, о путях, которыми следуют студенты в освоении своей профессии, а также об основной цели выбора профессии и профессиональной деятельности.

**Ключевые слова:** профессиональная деятельность, специалист, ценности, сферы жизни, профессия.

**Abstract:** This article provides information about the work of specialists, what needs to be done in order to grow as a specialist, the paths that students follow in acquiring their professions, and the main purpose of choosing a profession and professional activities.

**Key words:** professional activity, specialist, values, spheres of life, profession.

### KIRISH

Bugungi kunda mutaxassislar tayyorlash jarayonidagi nomutanosibliklar zamirida qator psixologik qonuniyatlar yotadi va ular shaxsning mutaxassis sifatida shakllanishini ta’minlashga xizmat qiluvchi mexanizmlarni ishga tushirish imkoniyatini beradi. Mutaxassis sifatida kamol topish uzoq va murakkab jarayon bo’lganligi sababli, unda sayqal topadigan shaxs ma’lum darajadagi sub’ekt sifatida yetilgan hamda o’zini boshqarish imkoniyatiga ega bo’lishi lozim. Biz ushbu «Qadriyatlar yo’nalishlari» metodikasini qo’llashimizning asosiy sababi shundaki, undagi shaxsning qadriyatlar yo’nalishi bilan hayotiy sohalar o’rtasidagi munosabatini tushuntirib berish mumkin bo’ladi. Shuni ta’kidlash lozimki, talabalarda psixik quvvat doimo ham kasbni egallash hamda hayotiy muammolar oldida o’zini oqlashi mumkinmi, degan savolga javob topishga to’g’ri keladi. Aslida talabalardagi optimistik munosabatni ularni kasbiy hamda shaxsiy sifatida kamol toptirish jarayonida kasbiy qobiliyat, bilim, ko’nikma va malakalar bilan uyg’unlashtirish hamda motivatsiyalashtirish lozim bo’ladi. Ularning kasbiy ideallarini reallikka, kundalik turmush tarziga muvofiqlashtirishga to’g’ri keladi.



CANADA



CANADA

### ASOSIY QISM:

Mutaxassislar ma'lum bir soha yoki fan bo'yicha chuqur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan mutaxassislardir. Ularning ishi murakkab muammolarni hal qilish, ixtisoslashtirilgan xizmatlarni taqdim etish va tegishli sohalardagi yutuqlarga hissa qo'shishni o'z ichiga oladi. Mutaxassislarni tibbiyot, texnologiya, moliya va boshqalar kabi turli sohalarda topish mumkin, ular o'zlarining tajribalari orqali jamiyat taraqqiyotida hal qiluvchi ro'l o'ynaydi.

Talabalarning kasbni egallashda faqat optimistik munosabatlarni yoki kasbiy ideallarning o'zi yetarli emasligini, kasbiy moslik hamda kamolot uchun sabr-toqat bilan o'qish, tinimsiz izlanish, uzlucksiz va mukammal bilim egallash, doimo shijoatli bo'lishlikni anglashlari muhimdir.Talabalarning tanlagan kasblariga munosibligida ularning oldiga qo'ygan maqsad va maslaklari yetakchi o'rinni tutishi ma'lum. Ammo keskin o'zgarishlar sharoitida kasb-hunar sohalariga munosabat o'spirinlarning ham dunyoqarashi, maqsadi va niyatlariga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmasligi tabiiy. Muammoning ushbu jihatini tadqiq etish maqsadida rossiyalik psixolog I.M. Kondakov tomonidan ishlab chiqilgan «Kasbiy ustavokkalarni aniqlash» ko'rib chiqamiz. Metodika besh yo'nalishdagi ustavokkalarni aniqlashga mo'ljallangan:

- a) kasb tanlashdagi qat'iyatsizlik;
- b) kasb tanlashdagi ratsionallik;
- s)kasbning istiqboliga optimistik munosabatda bo'lish;
- g) kasb tanlashda o'z imkoniyatlarini baholash;
- d) kasb tanlashning kishilarga bog'liqligi.

Talabalarning kasbiy tasavvurlariga tayanib, ularning kasbiy shakllanishini belgilovchi psixologik xususiyatlar va omillarni tadqiq etishda ularning shaxsiy va hayotiy pozitsiyalarining rolini aniqlash mumkin. Shaxsning maqsadi, ideallari va hayotda tutgan o'rni uning kasb tanlashi, kasbiy o'zligini belgilashi, kasbiy shakllanishi va kasbiy kamolotida muhim ahamiyat kasb etadi.Shuningdek, kasb tanlashdan ko'zlangan maqsad, kasbiy faoliyatni amalga oshirishga nisbatan talabaning tayyorligi va kasbiy qaror qabul qilish qobiliyati singari shaxsning muhim xususiyatlari ham kasbiy shakllanish jarayonida hal qiluvchi ahamiyatga ega.Ma'lumki, qadriyatlar yo'nalishlari shaxs tuzilmasining asosiy mohiyatini yoritishga yordam beradi. Chunki, qadriyatlar shaxsning ijtimoiy munosabatlari, ijtimoiy talablari, turmush tarzi, atrof-olamga munosabati, shaxsiy pozitsiyasi, hayotiy maqsadlari, moddiy-ma'naviy ehtiyojlari, dunyoqarashi hamda hayot faoliyatida bajariladigan ijtimoiy vazifalarini o'zida aks ettiradi.

### KASBIY FAOLIYATNI PSIXOLOGIK BAHOLASH TESTI.

Test savollari pedagogik faoliyatning psixologik diagnostikasiga bag'ishlangan. Shuning bilan birga, bu ma'lumotlar malakatimizdagi xalq ta'limi tizimini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.Shaxsiy va kasbiy sifatlarining haqidagi ma'lumotlar.Siz uchun quyidagi jarayonlar foydali bo'ladi:

- attestatsiyaga tayyorlanish kezida;
- shaxsiy – kasbiy sifatlarni rivojlantirishda va o'z ustingizda ishlashni takomillashtirishda;
- hayot – faoliyatingizni qanday tashkil qilishni belgilab beruvchi o'zingizni «Men»
- kontseptsiya bo'yicha (o'zingiz haqingizdagi tasavvurni) baholashingizda.

Xulosa:

Turli sohalardagi mutaxassislar odatda o'zlarining tajribalariga moslashtirilgan muayyan ish jarayonlarini kuzatib boradilar. Masalan, dasturiy ta'minot ishlab chiqaruvchisi talablarni tahlil qilish, kodlash, sinovdan o'tkazish va joylashtirish kabi bosqichlardan o'tishi mumkin. Shu bilan birga, biolog tadqiqotni loyihalash, tajriba o'tkazish, ma'lumotlarni tahlil qilish va nashr etish bilan bog'liq jarayonlarni kuzatishi mumkin. Aniq ish jarayoni sohaga va muayyan ish majburiyatlariga bog'liq.

Kasbni to'g'ri tanlash mutaxassislik faoliyati samaradorligini belgilovchi asosiy mezondir. Chunki, kasbga ehtiyojni aniqlash faoliyat motivlarini to'g'ri shakllantirishga imkon beradi. Talabalarning kasbni to'g'ri tanlaganligi bo'yicha javoblarini tahlil qilinganda, kasbiy ta'lim jarayonida ta'lim beruvchi bilan ta'lim oluvchi o'rtaсидаги munosabatlar, ishchi o'rni va ta'lim muassasasiga munosabatlar ham kasbni to'g'ri tanlash asosida kelib chiqadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. D.M.Raxmonova Qarshi davlat universiteti. Zamonaviy boshlang'ich va pedagogik ta'lim: nazariy va amaliy innovatsion ta'lim tadqiqolar. Respublika ilmiy amaliy konferensiyasi: Fanlararo izchillik va aloqadorlik o'quvchi kognitiv jarayonlari taraqqiyotida muhim omil. 2020 yil, aprel.
2. Saidahmedov N. Pedagogik amaliyotda yangi texnologiyalarni qo'llash namunalari.- Toshkent:RTM.2000.
3. Kamenskiy S.E., Orekhov V.P.Fizikadan masalalar yechish metodikasi. "O'qituvchi" nashriyoti.T.:1976. 4. B.L. Farberman. "Progressivniye pedagogicheskiye texnologii" - Т. 1999.
4. Рахматуллаева Ф. М., Болтаева Ш. Б. Совершенствование системы управления персоналом на промышленных предприятиях //Экономика и финансы (Узбекистан). – 2014. – №. 5. – С. 51-54.
5. Таирова М. М., Болтаева Ш. Б. Роль агромаркетинга в развитии экспорта плодовоощной продукции Узбекистана //Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. – 2014. – №. 8-1. – С. 157-159.
6. Болтаева Ш. Б. ЗНАЧЕНИЕ ОБСЛУЖИВАНИЯ ЛИЗИНГА В СФЕРЕ АГРАРА //СОВРЕМЕННОЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ СОСТОЯНИЕ ПРИРОДНОЙ СРЕДЫ И НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЦИОНАЛЬНОГО ПРИРОДОПОЛЬЗОВАНИЯ. – 2017. – С. 1923-1924.



7. Болтаева Ш. Б. ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА В АПК //СОВРЕМЕННОЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ СОСТОЯНИЕ ПРИРОДНОЙ СРЕДЫ И НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЦИОНАЛЬНОГО ПРИРОДОПОЛЬЗОВАНИЯ. – 2017. – С. 1891-1892.